



## XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-7-35-5-74-K/25

Nurota tumani

### **2025-yil birinchi mavsum “Ochiq byudjet” axborot portalida ovoz berish jarayonida g‘olib bo‘lgan tashabbuslarni tasdiqlash va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5072-sonli qarori qabul qilindi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senatining 2024-yil 30-yanvarda KQ-666-IV sonli “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” qaroriga asosan “Tashabbusli byudjet jarayoni” ning 2025-yil 1-mavsumi o‘tkazildi.

Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash maqsadida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” yil boshiga qoldiq mablag‘lari 1 324,3 million so‘mni tashkil etib, 2025-yil 1-mavsum doirasida byudjet parametrlariga rejulashtirilgan mablag‘larning 50 % hisobidan 9999,2 million so‘m va erkin qoldiq mablag‘lari va iqtisod qilingan mablag‘lar bilan qo‘shib hisoblanganda **jami 12224,5 million so‘m mablag‘lar yo‘naltiriladi**.

Nizom talablariga muvofiq “Fuqarolar tashabbusi jarayoni” da g‘olib takliflarni aniqlash 4 ta bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich – (qabul qilish bosqichi) joriy yilning 1-fevraldan 20-fevralgacha o‘tkazilib, bunda fuqarolar tomonidan “Ochiq byudjet” axborot portali orqali mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida jami 123 ta takliflar bildirildi.

Ikkinchi bosqich – (ko‘rib chiqish bosqichi) 21-fevraldan 7-martgacha davom etib, bunda “Ochiq byudjet” axborot portaliga kiritilgan takliflar sohalarga ajratilib, tadbirlar summalariga aniqlik kiritildi va ishchi komissiyaga taqdim etildi. Fuqarolarimiz tomonidan bildirilgan 123 ta takliflar Ishchi komissiya tomonidan belgilangan tartibda o‘rganilib, 117 ta taklif ovoz berish bosqichiga o‘tkazildi va 6 ta takliflar, shundan:

bir birini takrorlovchi (dublikat loyiha) 1 ta, texnik imkoniyati bo‘lmagan 1 ta loyiha (gazlashtirish), idoraviy-ma’muriy xarajatlarga qaratilgan 2 ta loyiha va amalga oshirish umumiyligi qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4000 baravaridan ziyod bo‘lgan 2 ta loyihalar Ishchi komissiya xulosasiga ko‘ra rad etildi.

Uchinchi bosqich (targ‘ibot bosqichi) 8-martdan 10-martga qadar davom etdi.

To‘rtinchi bosqich (ovozi berish bosqichi) 10-martdan 20-martga qadar davom etdi. Ovoz berish bosqichiga o‘tkazilgan 117 ta takliflar uchun fuqarolar tomonidan “Ochiq byudjet” axborot portaliga jami 28229 ta ovozlar kelib tushdi.

Joriy yilning fevral-mart oylarida “Ochiq byudjet” axborot portalida takliflarni qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ovoz berish jarayonlari yakunlangandan so‘ng fuqarolar tomonidan bildirilgan quyidagi takliflar tizim tomonidan avtomatlashtirilgan tarzda “Ochiq byudjet” axborot portalida g‘olib deb topildi: Jumladan,

“Yangihayot” MFYga qarashli “Yangibino” qishlog‘i 11-maktab bo‘sh joy hududiga zamonaviy, usti yopiq, yechinish xonasi, dush, zamon ta’labiga mos keladigan 45x25 o‘lchamli suniy qoplamlali stadion qurish taklifi (ID raqami 050367262006) (jami 4177 ta ovoz) xarajatlari uchun 1500,0 (bir milliard besh yuz million) million so‘m;

Nurota tumani “Jarma” MFY “Xayrobod” qishlog‘idagi 48-umumta’lim maktabiga zamonaviy sport zali va maktab binosiga kirish faesi qurish taklifi (ID raqami 050366455006) (jami 3876 ta ovoz) xarajatlari uchun 1500,0 (bir milliard besh yuz million) million so‘m;

Nurota tumani “Jarma” MFY “Oqqula” qishlog‘idagi 12-umumta’lim maktabida 27x47 m o‘lchamdagisi usti yopiq minifutbol stadioni hamda yuvinish va kiyinish xonalari bilan birgalikda qurish taklifi (ID raqami 050364466006) (jami 3476 ta ovoz) xarajatlari uchun 1500,0 (bir milliard besh yuz million) million so‘m;

Nurota tumani “Kattasoy” MFY “Kattaej” qishlog‘idagi 43-maktabda usti yopiq futbol stadioni qurish taklifi (ID raqami 050383775006) (jami 2859 ta ovoz) xarajatlari uchun 1300,0 (bir milliard uch yuz million) million so‘m;

Nurota tumani “Bo’ston” MFY 29-maktab bo‘sh yer maydonidan zamonaviy sport zali qurish taklifi (ID raqami 050366237006) (jami 2808 ta ovoz) xarajatlari uchun 1500,0 (bir milliard besh yuz million) million so‘m;

Nurota tumani “Jarma” MFY “Jarma” qishlog‘i qabristoni atrofini panjara bilan o‘rash va kirish darvozasi o‘rnatish, yoritish chiroqlari bilan ta’minalash taklifi (ID raqami 050364495006) (jami 2236 ta ovoz) xarajatlari uchun 1000,0 (bir milliard) million so‘m;

Nurota tumani “Qadoq” MFY dagi “Jilbuloq”, “Baroq”, “Qadoq” qishloqlaridagi ichki yo‘llarning juda yomonligi, yo‘llar tuproq bo‘lib transport harakati, piyodalar va o‘quvchilarining maktabga kelib ketishi uchun yomg‘irli kunlarda qatnov juda qiyinlashishi sababli ichki yo‘llarni asfaltlash, mahalliy aholi uchun qulaylik yaratib hududning infratuzulmasini yaxshilash taklifi (ID raqami 050388957006) (jami 2125 ta ovoz) xarajatlari uchun 1499,4 (bir milliard to‘rt yuz to‘qson to‘qqiz million to‘rt yuz ming) million so‘m;

Nurota "Muruvvat" nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyiga volleybol va basketbol o‘yingohi qurish, tashqi devor va panjaralarni ta’mirlash, hammom va yuvinish xonasi, yotoqxona binosini joriy ta’mirlash taklifi (ID raqami 050364232006) (jami 1654 ta ovoz) xarajatlari uchun 1500,0 (bir milliard besh yuz million) million so‘m.

“Ochiq byudjet axborot” portalida jamoatchilik tomonidan ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra eng ko‘p ovoz to‘plagan takliflarni saralab olish hamda jamg‘arma mablag‘larini moliyalashtirish va xulosalar berish bo‘yicha Ishchi komissiya yig‘ilish bayoniga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV sonli “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” qarorida belgilangan Nizomning 45, 46, 47 bandlariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6, 24 – moddalariga asoslanib Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi

## **QAROR QILADI:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining “openbudget” rasmiy veb saytidan olingan ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra quyidagi takliflar:

Yangi Hayot MFYga qarashli Yangibino qishlog‘i 11-maktab bo‘sh joy hududiga zamonaviy, usti yopiq, yechinish xonasi, dush, zamon ta’labiga mos keladigan 45x25 o‘lchamli suniy qoplamlari stadion qurish taklifi (ID raqami 050367262006);

Nurota tumani Jarma MFY Xayrobod qishlog‘idagi 48-umuta’lim maktabiga zamonaviy sport zali va maktab binosiga kirish faesi qurish taklifi (ID raqami 050366455006);

Nurota tumani Jarma MFY Oqqula qishlog‘idagi 12-umumta’lim maktabida 27x47 m o‘lchamdagisi usti yopiq minifutbol stadiioni hamda yuvinish va kiyinish xonalari bilan birgalikda qurish taklifi (ID raqami 050364466006);

Nurota tumani Kattasoy MFY Kattaej qishlog‘idagi 43-maktabda usti yopiq futbol stadiioni qurish taklifi (ID raqami 050383775006);

Nurota tumani Bo’ston MFY 29-maktab bo’sh er maydonidan zamonaviy sport zali qurish taklifi (ID raqami 050366237006);

Nurota tumani Jarma MFY Jarma qishlog‘i qabristoni atrofini panjara bilan o‘rash va kirish darvozasi o‘rnatish, yoritish chiroqlari bilan ta’minalash taklifi (ID raqami 050364495006);

Qadoq MFY dagi Jilbuloq, Baroq, Qadoq qishloqlaridagi ichki yo‘llarning juda yomonligi, yo‘llar tuproq bo‘lib transport harakati, piyodalar va o‘quvchilarning maktabga kelib ketishi uchun yomg‘irli kunlarda qatnov juda qiyinlashishi sababli ichki yo‘llarni asfaltlash, mahalliy aholi uchun qulaylik yaratib hududning infratuzulmasini yaxshilash taklifi (ID raqami 050388957006);

Nurota "Muruvvat" nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyiga vollybol va basketbol o‘yingohi qurish, tashqi devor va panjaralarni ta’mirlash, hammom va yuvinish xonasi, yotoqxona binosini joriy ta’mirlash taklifi (ID raqami 050364232006) jami 8 ta takliflar g‘olib deb topilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tumanda 2025-yilning birinchi mavsumida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxat ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (moderator) ga :

“Ochiq byudjet” axborot portaliga kelib tushgan, eng ko‘p ovoz to‘plagan hamda 4-bosqichda g‘olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish uchun buyurtmachi tashkilotlarga har bir loyiha uchun alohida Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimida shaxsiy g‘azna hisob varag‘i ochilishini tashkillashtirish hamda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” (keyingi o‘rinlarda “Jamg‘arma”) da mavjud mablag‘lardan kelib chiqib moliyalashtirishni amalga oshirish;

g‘olib bo‘lgan takliflarni to‘liq moliyalashtirilib bo‘lingandan so‘ng mablag‘ ortgan taqdirda tuman hokimligi qoshida ochilgan shaxsiy g‘azna hisob varag‘iga qaytarish;

“Tashabbusli byudjet” jarayonining keyingi bosqichlarida fuqarolarni keng jalb qilish maqsadida “Ovoz berish yarmarkalarini” tashkil etish, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

4.Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish Ishchi komissiyasi (SH.Axmedov, O.Oxunjonov S.Haydarov):

Jamg‘armadan yo‘naltirilgan mablag‘lar bo‘yicha amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risida ma'lumotni;

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar doirasida amalga oshirilgan ishlar aks ettirilgan video-rolik va foto lavhalarini tuman hokimligining rasmiy veb saytida joylashtirib borsin.

5.Ushbu qaror imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (SH.Axmedov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



FAYZIYEV AZAMAT  
ISMATOVICH

Xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining  
 2025-yil 28-martdagি  
 VII-7-35-5-74-K/25 -son qaroriga  
 1-ilova

**Tumanda 2025-yilning birinchi mavsumida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxat**

Nº	Taklif ID raqami	Loyihalarning mazmuni	to'plangan ovoz soni	amalga oshirishning aniqlangan qiymati (ming so'm)	Haqiqatda ajratilgan (ming so'm)	Moliyalashtiris h manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, byudjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
1	050367262006	Yangi Hayot MFYga qarashli Yangibino qishlog'i 11-maktab bo'sh joy hududiga zamonaviy, usti yopiq, yechinish xonasi, dush, zamon ta'labilga mos keladigan 45x25 o'lchamli suniy qoplamlali stadion qurish.	4177	1 500 000 000	1 500 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
2	050366455006	Nurota tumani Jarma MFY Xayrobod qishlog'idagi 48-umuta'lim maktabiga zamonaviy sport zali va maktab binosiga kirish faesi qurish	3876	1 500 000 000	1 500 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
3	050364466006	Nurota tumani Jarma MFY Oqqula qishlog'idagi 12-umumta'lim maktabida 27x47 m o'lchamdagi usti yopiq minifutbol stadioni hamda yuvinish va kiyinish xonalari bilan birgalikda qurish	3476	1 500 000 000	1 500 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK

4	050383775006	Nurota tumani Kattasoy MFY Kattaej qishlog‘idagi 43-maktabda usti yopiq futbol stadioni qurish	2859	1 300 000 000	1 300 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
5	050366237006	Nurota tumani Bo'ston MFY 29-maktab bo'sh er maydonidan zamonaviy sport zali qurish	2808	1 500 000 000	1 500 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
6	050364495006	Nurota tumani Jarma MFY Jarma qishlog‘i qabristoni atrofini panjara bilan o‘rash va kirish darvozasi o‘rnatish, yoritish chiroqlari bilan ta'minlash	2236	1 000 000 000	1 000 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	Tuman Obodonlapshtirish boshqarmasi
7	050388957006	Qadoq MFY dagi Jilbulloq, Baroq, Qadoq qishoqlardagi ichki yo‘llarning juda yomonligi, yo‘llar tuproq bo‘lib transport harakati, piyodalar va o‘quvchilarning mакtabga kelib ketishi uchun yomg‘irli kunlarda qatnov juda qiyinlashadi. Shu sababli ichki yo‘llarni asfaltlash, mahalliy aholi uchun qulaylik yaratib hududning infratuzulmasini yaxshilashga xizmat qiladi.	2125	1 499 400 000	1 499 400 000	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	Navoiy “Mintaqaviy yo‘llarga buyurmachi xizmati” DM
8	050364232006	Nurota "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyiga vollybol va basketbol o'yingohi qurish, tashqi devor va panjaralarni ta'mirlash, hammom va yuvinish xonasi, yotoqxona binosini joriy ta'miralsh	1654	1 500 000 000	1 500 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
		<b>Jami</b>		<b>11 299 400 000</b>	<b>11 299 400 000</b>		